

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924).....	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar).....	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE).....	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA).....	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOYIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOYIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOYIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280
---	---------

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLNING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejavalievna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyoro

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF FORMING CRITICAL THINKING IN PROTECTING AGAINST THE INFLUENCE OF DESTRUCTIVE PROPAGANDA

Rustamov Ramz Rizoqulovich

Associate Professor, Karshi State Technical University

E-mail: ramz.rustamov.81@mail.ru

Abstract. This article notes that while modern propaganda systems of a constructive nature are improving, destructive propaganda forms and means are also becoming more complex, and proves the need to solve three main tasks in order to protect people's consciousness and activities from the influence of destructive modern propaganda: a) it is necessary to raise critical thinking in people, relying on the educational opportunities of society; b) it is necessary to further improve public opinion by using the opportunities of the mass media and social networks; c) it is necessary to improve the national spiritual propaganda system. At the same time, it is emphasized that the first task in protecting people's consciousness and activities from the increasingly active influence of destructive modern propaganda in modern society is related to raising critical thinking in them, and for this, it makes suggestions and recommendations that all educational opportunities of society should be mobilized to fulfill this task, and systematic measures should be taken to raise critical thinking using these opportunities.

Keywords: ve.

DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI

Rustamov Ramz Rizoqulovich,

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstruktiv xarakterga ega bo'lgan zamonaviy targ'ibot sistemalari takomil topib borayotgan bir sharoitda destruktiv targ'ibot shakllari va vositalari ham murakkablashayotgani qayd qilinadi va kishilar ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan himoya qilish uchun uch asosiy vazifani hal qilish zarurligi isbotlanadi: a) jamiyat ma'rifiy imkoniyatlariga tayangan holda kishilarda tanqidiy tafakkurni yuksaltirish zarur; b) ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini yanada sog'lomlashtirish kerak; v) milliy ma'naviy targ'ibot sistemasini takomillashtirish lozim ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi birinchi vazifa ularda tanqidiy tafakkurni yuksaltirish bilan bog'liqligi, buning uchun mazkur vazifa ijrosiga jamiyatning barcha ma'rifiy imkoniyatlari safarbar qilinmog'i, mazkur imkoniyatlar vositasida tanqidiy tafakkurni yuksaltirish imkonini beradigan tizimli choralar amalga oshirilmog'i kerak degan taklif va tavsiyalarni beradi.

Kalit so'zlar: targ'ibot, destruktiv targ'ibot, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur, zamonaviy targ'ibot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N37>

KIRISH

Zamonaviy targ'ibot sistemalari nafaqat konstruktiv targ'ibot konfiguratsiyalari va modellaridan, balki ularning destruktiv ko'rinishlaridan ham tarkib topadi. Ahamiyatli jihati shundaki, zamonaviy jamiyat sharoitida konstruktiv targ'ibot naqadar takomil topayotgan bo'lsa, destruktiv targ'ibot ham shu qadar murakkab tus olib bormoqda. Shu munosabat bilan

jamiyat a'zolarini konstruktiv targ'ibot ta'siri ostida saqlab turish, ayni paytda ularning ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu maqsad yo'lida bajarilishi zarur bo'lgan birinchi vazifa – jamiyat ma'rifiy imkoniyatlariga tayangan holda kishilarda tanqidiy tafakkurni yuksaltirish bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanqidiy tafakkur deganda shaxsning turli ma'lumotlarni tahlil qilish, dalil va faktlarni baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyati tushuniladi. Mavzuni mufassal tadqiq qilgan olimlar uning qator o'ziga xos komponentlardan tarkib topishini qayd qiladilar. Jumladan, P. Fasson va R. Ennisning fikricha, tanqidiy tafakkur ko'p aspektli fenomen bo'lib, u turfa kognitiv ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Olimlar uning tarkibidan refleksiya, mantiq va skeptitsizm kabi ko'nikmalar joy olganini ta'kidlaydilar[1]. Aynan shu komponentlar shaxsga axborotni chuqur tahlil qilish, baholash, asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Chunonchi, refleksiya deganda insonning o'z mulohazalari va taxminlarini tizimga solish ko'nikmasi tushuniladi. Bu ko'nikma insonga ma'lumotlarni xolis idrok etishga xalal berayotgan shaxsiy tajriba va ehtirolarni aniqlashga yordam beradi[1]. Mantiq deganda olimlar turli dalillarni tahlil qilishda aniq va izchil mulohazalarga tayanish ko'nikmasini nazarda tutadilar. Mazkur ko'nikma shaxsga taqdim qilinayotgan ma'lumotdagi mantiqiy xatolarni ilg'ab olish, undagi sabab-oqibat aloqadorligining buzilishi hollarini aniqlash imkonini beradi[1]. P. Fasson va R. Ennis skeptitsizm deganda har qanday xulosaga shubha bilan qarash ko'nikmasini nazarda tutadilar. Bu ko'nikma faqat isbotlangan faktlarni qabul qilish uchun zamin yaratadi[1].

Tanqidiy tafakkur odatiy tafakkurdan keskin farq qiladi. Ma'lumki, odatiy tafakkur bilishning ko'pchilikka xos bo'lgan shakli hisoblanadi. U shaxsiy tuyg'ular, tajribalar, kundalik kuzatuvlar, odatiy stereotiplarga asoslanadi. Odatiy tafakkur yuritish tarzi kundalik hayot uchun ancha-muncha qulay, chunki u chuqur tahlilga vaqt sarflamasdan tezkor qaror qabul qilishga imkon beradi[2]. Biroq uning qator zaif nuqtalari ham mavjud. Xususan: a) bunday tafakkur axborotni yuzaki idrok etishga tayanadi; b) bunday tafakkur shaxs qarashlariga mos tushadigan va ularni tasdiqlaydigan ma'lumotlarni izlab topishga, unga zidlarini esa inkor qilishga moyil bo'ladi; v) bunday tafakkur shaxsiy mulohazalardagi ziddiyatlarni ilg'ab olishga yo'l qo'ymaydi; g) bunday tafakkur shaxsga o'z qarashlarini shubha ostiga olishga imkon qoldirmaydi; d) bunday tafakkur ma'lumotni shunchaki hissiy idrok etishga asoslangani tufayli hamisha ham mantiqan asoslangan xulosalar bilan yakun topavermaydi; e) bunday tafakkur jamoatchilik fikriga qat'iy bo'ysungani tufayli ko'pchilik tomonidan ma'qullangan xulosalarni tahlillsiz qabul qiladi.

Undan farqli o'laroq, tanqidiy tafakkur ma'lumotlarni shunchaki "hazm qilish" bilan cheklanmaydi. Bunday tarzda mulohaza yuritayotgan kishi har qanday ma'lumotni, uning manbasini tekshirib ko'rishga, uni tahlil qilishga, obyektiv xulosalar chiqarishga moyil bo'ladi. Tanqidiy tafakkur onglikni, aqliy intizomni, uzluksiz mulohazani taqozo qiladi. Xullas, odatiy va tanqidiy tafakkur ma'lumotni idrok etish va uni qayta ishlashga bo'lgan ikki ayricha yondashuvni ifodalaydi. Odatiy tafakkur yuzakiligi, tuyg'u va kechinmalarga tayanganligi bilan xarakterlansa, tanqidiy tafakkur mantiq va tahlilga asoslanganligi bilan tavsiflanadi.

Axborot makonini ziddiyatlarga to'la axborotlar to'ldirib borayotgan, soxta ma'lumotlar tarqatishga asoslangan destruktiv targ'ibot avj olayotgan bir sharoitda jamiyat a'zolarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb qilmoqda. Chunki faqat shunday tafakkurni shakllantirish orqaligina kishilar ongi va shuurini iqtisodiy, ijtimoiy,

siyosiy-mafkuraviy destruktiv targ'ibot subyektlari manipulyatsiyalaridan muhofaza qilish, ularni voqelikni obyektiv idrok etishga odatlantirish mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan fikrлагanda, fuqarolarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalasi zamonaviy, demokratik jamiyat qurish-ning omillaridan biriga aylanmoqda.

Darhaqiqat, destruktiv targ'ibotning oldini olishda tanqidiy tafakkurning roli nihoyatda katta. Chunki, birinchidan, tanqidiy tafakkur faktchekingni shakllantirish uchun real imkoniyatlar yaratadi. Faktcheking deganda shaxsning ma'lumotlarni uzatayotgan manba ishonchliligini aniqlash qobiliyati tushuniladi[3]. Mazkur qobiliyat mantiqsizlikni aniqlash, ma'lumotni isbotlash uchun keltirilgan dalillardagi nomuvofiqliklarni ilg'ash, shubha ostiga olish, shuning asosida ma'lumotni tarqatayotgan manbaning ishonchliligi darajasini baholash ko'nikmalaridan tarkib topadi.

Tanqidiy tafakkur targ'ibot subyektlari muayyan g'oyalar va ma'lumotlarni ommalashtirish uchun ishlatayotgan manbalarning obyektivligi va ishonchliligi darajasi bir-biridan tubdan farqlanishini anglash imkonini beradi. Uning sharofati bilan muayyan subyektlar manfaatini qo'llash va targ'ib qilish maqsadida real vaziyatni buzib talqin etayotgan manbalarni osongina aniqlab olish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, tanqidiy tafakkur targ'ib etilayotgan g'oyaning o'zini ham tanqidiy tahlil qilishga odatlantiradi. Uzatilayotgan axborotlar, taqdim qilinayotgan g'oyalar tabiatiga tanqidiy yondashishga o'rgangan inson yangi ma'lumotlar bilan shunchaki tanishish bilan cheklanmaydi. U matndagi mantiqiylik darajasiga, asosiy tezis bilan argumentlar orasidagi bog'liqlikka e'tiborni qaratadi, axborotni boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan taqqoslab ko'radi va shundan keyingina muayyan xulosaga keladi.

Mafkuraviy targ'ibot xususida ham shunday deyish mumkin. Destruktiv mafkuraviy targ'ibot bilan mashg'ul bo'lgan ko'plab subyektlar odatda kishilar ongiga buzib talqin qilingan ma'lumotlar orqali ta'sir ko'rsatishga intiladilar.

Uchinchidan, tanqidiy tafakkur targ'ibot davomida qo'llanilgan manipulyativ texnologiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Targ'ibot subyektlari ham manipulyativ texnologiyalardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni kanda qilmayaptilar. Masalan, iqtisodiy targ'ibot subyektlari "tanqislik effekti" deb nomlangan manipulyativ texnologiyaga murojaat etishni xush ko'radilar. Unga ko'ra, avvalo iste'molchida mahsulotning kamyobligi (masalan, "bu mahsulotdan atigi 5 ta qoldi") haqida illyuziya shakllantiriladi. Oqibatda esa shu mahsulotga bo'lgan talab sun'iy ravishda oshiriladi[4].

To'rtinchidan, tanqidiy tafakkur noxolis targ'ibotchilar qo'llaydigan kognitiv xatolarni ilg'ab olishda qo'l keladi. Kognitiv xatolar deganda mulohaza jarayonida kishilarni chalg'itish uchun atayin qilingan xatolar nazarda tutiladi.

Noxolis targ'ibotchilar jamoatchilik fikriga ta'sir qilish va o'zlariga maqbul ijtimoiy munosabatni shakllantirish maqsadida kognitiv xatolardan faol foydalanadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rinib turibdiki, destruktiv targ'ibotning oldini olishda tanqidiy tafakkurning imkoniyatlari beqiyosdir.

Biroq jamiyat a'zolarining tanqidiy tafakkuri stixiyali ravishda va tasodifiy tadbirlar sharofati bilan qaror topib qolmaydi, albatta. Buning uchun jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ma'rifiy imkoniyatlar shu maqsad sari safarbar qilinmog'i, ulardan oqilona foydalanilmog'i

darkor. Faqat shu yo'l bilangina kishilarning ong-u shuurini destruktiv targ'ibot ta'siridan samarali muhofaza qilish mumkin bo'ladi. Bu borada quyidagi vazifalar kun tartibiga qo'yilmog'i darkor, deb o'ylaymiz:

1. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularni tarqa-tilayotgan g'oya, fikr, ma'lumotni tahlil qilishga o'rgatish lozim. Ushbu malaka shaxsga ijtimoiy jarayonlarni taqdim qilinayotgan ma'lumotga ko'r-ko'rona ishongan holda emas, ongli ravishda va to'g'ri metodologik pozitsiyadan idrok etish imkonini beradi. Uning shakllanishi natijasi o'laroq fuqarolarning nafaqat oqilona xabardorlik darajasi oshadi, balki faktlarni shaxsiy fikr va manipulyatsiyalardan ajratish qobiliyati ham shakllanadi.

2. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda dalil keltirish va rad qilish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Dalil keltirish qobiliyati, bir tomondan, insonga o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni ravshan tarzda ifoda etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, targ'ib qilinayotgan g'oyani asoslash uchun keltirilgan faktlarning haqqoniyligini, ishonarliligini baholashda qo'l keladi[5].

3. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda munozaralarda qatnashish malakasini rivojlantirish kerak.

4. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularni mantiqiy tafakkurning asosiy tamoyillaridan voqif qilish lozim. Shuning uchun ta'lim tizimida va jamoatchilik o'rtasida mantiqiy tafakkur asoslarini o'rgatish, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etish muhim hisoblanadi[6].

5. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda ilmiy skeptitsizmni rag'batlantirish kerak. Ma'lumki, ilmiy skeptitsizm – bu har qanday ma'lumot va axborotlarni mavjud dalillar asosida tahlil qilish, ulaning mazmuniga shubha bilan qarash, so'zsiz mantiqiy va empirik sinovdan o'tkazish tamoyilidir[7]. Tabiiyki, bunday malakaning shakllanishi jamiyat a'zolarini nafaqat axborotni tahlil qilgandan so'ng o'zlashtirishga, balki haqiqatni yolg'ondan ajrata olishga ham odatlantiradi.

6. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish zarur bo'ladi. Tanqidiy va ijodiy tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Tanqidiy tafakkur – bu ma'lumot va g'oyalarni tahlil qilish, ularni mantiqiy dalillar asosida baholash ko'nikmasi bo'lsa, ijodiy tafakkur – bu yangi, noodatiy yondashuvlarni topish va mavjud tushunchalarni qayta tahlil qilish qobiliyatidir[8]. Agar inson ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmasa, uning tanqidiy tafakkuri ham cheklangan xarakterga ega bo'ladi. Bunday kishi turfa manbalar orqali tarqatilayotgan g'oya yoxud ma'lumotni faqat mavjud me'yorlar va nuqtai nazarlar doirasida tahlil qila oladi, ular asosida yangi xulosalarga kelish esa uning uchun erishib bo'lmas natija sifatida qolaveradi.

7. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalariga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyat a'zolarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish hamda shu yo'l bilan ularning ong-u shuurini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofaza qilish borasidagi vazifalarni ro'yobga chiqarishda quyidagi choralar samara berishi mumkin:

shahar va tumanlarda aholining mediasavodxonligini oshirishga yo'naltirilgan ma'rifiy kurslar tashkil qilish zarur; bunda respublika ma'naviyat markazining mahalliy bo'limlari, oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanish mumkin;

mamlakat korxonasi va tashkilotlarida yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda tanqidiy tafakkur asoslariga bag'ishlangan ommaviy ma'ruzalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

mustaqil ommaviy axborot vositalarining yanada ravnaq toptirilishi tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun obyektiv zamin hozirlagan bo'lardi;

ta'lim maskanlarida tanqidiy tafakkurni shakllantirishni maqsad qilgan to'garaklar tashkil etishni yo'lga qo'yish kerak;

madaniyat va san'at imkoniyatlariga tayangan holda tanqidiy va ilmiy tafakkurni ommalashtirish masalalariga ham e'tiborni kuchaytirish lozim.

Tilga olingan vazifalarning ro'yobga chiqarilishi, ko'rsatilgan choralarning inobatga olinishi jamiyat a'zolarida tanqidiy tafakkurni yuksaltirishga va shuning bilan ularning ong-u shuurini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofaza qilishga hissa qo'shadi, deya umid qilamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi birinchi vazifa ularni tanqidiy tafakkurni yuksaltirish bilan bog'liq. Buning uchun mazkur vazifa ijrosiga jamiyatning barcha ma'rifiy imkoniyatlari safarbar qilinmog'i, mazkur imkoniyatlar vositasida tanqidiy tafakkurni yuksaltirish imkonini beradigan tizimli choralar amalga oshirilmog'i dardkor.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Facione P.A., Ennis R.H. Critical thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction.- The Delphi Report,1997.
2. Халидова А.Б., Шуруха Т.А. Особенности процесса мышления.// *Мировая наука*, 2018, №4.- 258-261-с.
3. Корнев М.С. Фактчекинг: от термина и понятия к словоупотреблению.// *Вестник РГГУ. Серия: Литературоведение. Языкознание. Культурология*, 2020, №6.- 72-с.
4. Cox R. [Artificial Scarcity](#).// *The Socialist Standard*, 1998,№93.- P.1124.
5. *Fundamentals of Critical Argumentation (Critical Reasoning and Argumentation)*.- Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
6. Сидоренко Н.С., Гнатышак А.С. Развитие логического мышления в рамках непрерывного образования (от школы к вузу и от вуза к школе).// *Научный вестник Южного института менеджмента*, 2015, №2.- 74-76-с.
7. Богдан С.С. Научный скептицизм как культурный феномен и метод исследования паранормальных и псевдонаучных концепций.// *Манускрипт*, 2016, №3-1- 37-42-с.
8. Чернецкая Н.И. Творческое мышление как Высшая форма мышления.// *Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология*, 2009, №2.- 225-230-с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).